



2019 YIL YANVAR-APREL OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQUARISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9776,8 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **7651,9 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,3 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **19,3 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **9776,8** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,9** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham xissa qo'shdi. Ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,3** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **49,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **9572.0** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,9 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **128,0** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,3 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **27,0** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni) tashkil etdi.



Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari		Hajmi, soni	2019 yil Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	62740	41453
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	7775,6	5101
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	793.4	483.6
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	16.0	13.7
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	5974.8	5577.6
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'kilgan shnurlar va shu kabi buyumlar		tonna	102.2	133.5
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	239.5	610.2

GM Uzbekistan nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida muhim o`rin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yo`llari va ko`plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «O`zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

Viloyatda GM Uzbekistan tomonidan 2019 yil yanvar-aprel oylarida 62740 dona avtomobil ishlab chiqarildi. Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, korhona tomonidan yanvar oyidan boshlab yangi Tracker rusumli avtomobil ishlab chiqarish boshlandi.

2019 Yanvar-aprel oylarida GM UZBEKISTAN tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2019 yil yanvar-aprel oylarida	2018 yil yanvar-aprel oylarida
MATIZ	0	2467
SPARK	6554	6440
NEXIA T 250	22043	15059
COBALT	16972	7648
GENTRA	12725	7295
MALIBU	2361	693
CAPTIVA	6	1851
TRACKER	2079	0
JAMI	62740	41453

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 63,5 % ulushini), Andijon shaharlari 15,02 %, Honobod shaharlari 3,2 %, Shahrixon 2,6 %, Andijon 2,7 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,5 %), Paxtaobod (0,5 %) va Buloqboshi (0,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-aprel oylarida jami 9776,8 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 6211,2 mlrd so'mni, Andijon shahrida 1468,1 mlrd so'mni, Honobod shahrida 317,6 mlrd so'mni, shahrixon


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **7651,9** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,3 %** ga yetdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari


ishlab chiqarish hajmi 7651,9 mlrd.so'm

2-diagramma




Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2019 yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,3 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtaobod tumanida (99,8 %), Baliqchi tumanida (98,6 %) va Hojaobod tumanida (86,5 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,0 %), Honobod shahri (15,4 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 19422,3 ming so'm, Honabod shahrida 7598,5 ming so'm, Andijon shahrida 3378,0 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 3182,6 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma

